

Regional Instability in Iran and Its Impact on the International Economic System

Otajonova Zahro Quadrat qizi

Student, Faculty of International Economics and Management, University of
World Economy and Diplomacy
E-mail: otajonovazahro1@gmail.com

Abstract

This article provides with a comprehensive analysis of the regional instability in the Islamic Republic of Iran and its role in the global economic system. It examines the impact of Iran's strategic location on price volatility in the market and the resulting logistics disruptions. The influence of these factors on the development of the global economy is highlighted from a scientific and analytical perspective.

Keywords

Iran, sanctions, international economics, Strait of Hormuz, regional instability, logistics, aviation, oil.

Erondagi mintaqaviy beqarorlik va uning xalqaro iqtisodiy tizimga ta'siri

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro iqtisodiyot va menejment
fakulteti talabasi

Otajonova Zahro Quadrat qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Eron Islom Respublikasining mintaqaviy notinchligi va uning jahon iqtisodiyotidagi o'rni atroflicha tahlil qilinadi. Eronnig strategik joylashuvi global bozorda narxlarning beqarorligiga, logistika tizimidagi noqulayliklarga ta'siri o'rganiladi. Jahon iqtisodiyoti rivojidagi ilmiy- tahliliy tarafdin yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Eron, sanksiyalar, xalqaro iqtisodiyot, Hormuz bo'g'ozi, mintaqaviy notinchlik, logistika, aviatsiya, neft.

Аннотация. В данной статье проводится всесторонний анализ региональной нестабильности в Исламской Республики Иран и ее роли в мировой экономической системе. Исследуется влияние стратегического расположения Ирана на волатильность цен на мировом рынке и возникновение логистических барьеров. Влияние данных факторов на развитие мировой экономики освещается с научно- аналитической точки зрения.

Ключевые слова: Иран, санкции, международная экономика, Ормузский пролив, региональная нестабильность, логистика, авиация, нефть.

Kirish

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda har bir davlat, har bir mintaqa o'z o'rniga, ovoziga ega. Biror bir mamlakat yo'qki, uning notinchligi, beqaror siyosati nafaqat o'ziga, balki boshqa davlatlarga ham o'z tasirini o'tkazmasa. Biz chuqur tahlil qiladigan Yaqin Sharq mintaqasidagi Eron ham shular jumlasidandir. Yaqin davrdagi Isroil- Eron konflikt-munosabatlari tufayli yuzaga kelgan qurolli to'qnashuvlar natijasida yuzaga kelgan yirik talofatar nafaqat oddiy aholi, insonlarga, siyosiy tuzimga, balki xalqaro iqtisodiyotga, boshqa millatlarga ham jiddiy zarar yetkazdi. Ushbu davlatning katta energiya resurslariga ega ekanligi hamda jahon savdo arteriyasi hisoblangan Hormuz bo'g'ozini ustidan nazorat o'rnatish imkoniyatiga ega ekanligi uni xalqaro maydonda eng ta'sirchan nuqtalardan biriga aylantiradi. Maqolada, bu vaziyatda energetika tizimidagi noqulayliklar tufayli logistikada va global bozorda narxlarning beqarorligi jahon iqtisodiyoti rivojida qanday oqibatlariga olib kelayotgani mulohazalar bilan ochib beriladi, shu borada so'z boradi.

Eronda hududiy notinchlik bugun yoki kecha yuzaga kelgan emas, bu vaziyat yillar davomida surunkali tus olgan. Lekin, aynan hozir yuzaga kelgan keskin jarayonning asosiy sabablari sifatida AQSh va G'arb davlatlari o'rtasida uzoq davom etayotgan siyosiy qarama- qarshiliklarning avj olganini, yadroviy dastur bilan bog'liq xalqaro

nizolarni, Yaqin Sharqdagi geosiyosiy raqobatni aytish mumkin. Xususan, Eronga Birlashgan millatlar tashkiloti va G'arb davlatlari tomonidan joriy etilgan sanksiyalar tufayli iqtisodiyotida jiddiy bosim yuzaga keldi. Natijada mamlakatda inflyatsiya miqdori oshdi, milliy valyutaning qadrsizlanishi kuzatildi. Ma'lumotlarga ko'ra, xorijiy investitsiya miqdori beqaror siyosat sabab yillar davomida kamayib kelgan va bu yalpi ichki mahsulotga jiddiy zarar yetkazgan.

Tarixdan, Amerika Qo'shma Shtatlari va Eron o'rtasidagi munosabatlar salbiy tus olib kelgan. Xususan, 1996- yil AQSh Kongressi tomonidan qabul qilingan qonunda Eronga 20 mln. AQSh dollaridan ortiq investitsiya kiritgan har qanday mamlakatga nisbatan sanksiyalar qo'llash aytib o'tilgan. Bundan tashqari, Eron 2005- yilda yadro dasturini qayta yo'lga qo'yishini aytdi, bunga javoban AQSh yangi sanksiyalarni e'lon qildi, mazkur sanksiyaga 2012- yilda Yevropa Ittifoqi ham qo'shildi. Eron ham bo'sh kelgani yo'q, AQShga shu yilning o'zida, Yevropa Ittifoqiga esa 2013-yilda neft va gaz eksportini to'xtatdi.

Pandemiya sharoitida davlatning ishlab chiqarish miqdori kamayib ketdi. 2010-yilda kunlik neft va gaz ishlab chiqarish miqdori 3,54million barrel atrofida bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 202-yilda 1,9-2,0million barrel miqdoriga tushib ketdi. 2014-yilda kunlik eksport hajmi 1,4 million barrel bo'lgan va bu natija 1986- yildan beri eng past ko'rsatkich hisoblangan, lekin pandemiya davrida bu ko'rsatkich 400000- 600000 barrel oralig'iga tushib ketgan. Bir tarafdin Vashington tomonidan Tehronning neft va gaz sanoatiga qaratilgan sanksiyalari ham aynan shu davrda eng maksimal nuqtaga yetdi, shu tufayli bazaviy ishlab chiqarish quvvati o'rtacha 4 foizga kamayib bordi. Eronning Markaziy banki va deyarli barcha tijorat banklari xalqaro hisob-kitob tizimidan butunlay chiqarib tashlandi. Bu esa neft savdosidan tushgan pullarni mamlakatga olib kirishni mutlaqo imkonsiz qildi.

Energetika sanoatida Eron va Isroil to‘g‘ridan to‘g‘ri harbiy to‘qnashuvlari xalqaro bozorda neft narxining barreliga joriy narxidan 5-12 AQSh dollari miqdorida qimmatlashishiga olib keldi. Jahon banki tahliliga ko‘ra neft narxi 150 AQSh dollarigacha ko‘tarilishi prognoz qilingan. Isroilning Eronning Abadan yoki Xarg orolidagi neftni qayta ishlash zavodlariga ehtimoliy qurolli zarbalari jahon bozoridan kuniga 1,5-2 mln barrel neftni chiqarib yuborishi tahin qilinadi. Bundan ko‘pgina davlat va mintaqalar, xususan, G‘arbiy Yevropa va Hindiston kabi neftni import qiluvchi davlatlar xarajatlarning oshishi tufayli milliardlab dollar zarar ko‘rdi.

Erondagi mintaqaviy beqarorlik xalqaro logistika tizimiga faqat yo‘llarning uzayishi orqali emas, balki yuk tashish xarajatlarning keskin oshishi orqali ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, dengiz transporti sug‘urtasi bo‘yicha “war risk insurance premiums” — ya’ni urush xavfi sug‘urtasi narxlarining oshishi eng katta muammolardan biriga aylandi.

Hormuz bo‘g‘ozi va Qizil dengiz hududi “yuqori xavfli zona” sifatida baholangach, London sug‘urta bozori — jumladan, Lloyd’s of London va boshqa yirik sug‘urta sindikatlari kemalar uchun tariflarni keskin ko‘tardi. Avval kemandi qiyamatiga nisbatan taxminan 0,1% bo‘lgan sug‘urta badali ayrim hollarda 1% gacha yetmoqda. Bu nimani anglatadi? Masalan, qiymati 100 million dollar bo‘lgan yirik tanker yoki konteyner kemasi xavfli hududdan bir marta o‘tishining o‘zi uchun qo‘shimcha ravishda qariyb 1 million dollar sug‘urta xarajati qilishiga to‘g‘ri keladi. Eng muhimi, bu xarajalar transport kompaniyalari zimmasida qolib ketmaydi. Ular yuk tashish tariflariga qo‘shiladi, keyin esa import qilinadigan mahsulotlar narxida aks etadi. Ya’ni, oddiy iste’molchi sotib olayotgan oziq-ovqat, kiyim-kechak yoki maishiy texnika narxining oshishida ham aynan shu geosiyosiy xavflarning hissi bor. Natijada global ta’minot zanjiri yanada bosim ostida qolmoqda: iqtisodiy o‘rish sekinlashayotgan bir

paytda narxlar oshib boradi. Bu esa iqtisodchilar “stagflyatsion bosim” deb ataydigan xavfning kuchayishiga olib keladi.

Logistika tarmog‘ida ham ko‘plab zararlar yuzaga kelgan. Suvaysh kanali va Hormuz bo‘g‘ozida dengiz transporti eng ko‘p zarar ko‘rayotgan tarmoq hisoblanadi. Misr hukumati ma’lumotlariga ko‘ra Qizil dengizdagi beqarorlik sabab Suvaysh kanali orqali yuk tashish qariyb 2 baravarga, ya’ni 50-60% foizg kamaygan. Bu esa Misr iqtisodiyotiga yillik tahminan 4-5 mlrd.AQSh dollari mqdorida zarar keltirmoqda.

Aviatsiyada ham muammolar yetarlicha. Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi reyslar Eron va Isroil havo hududini aylanib o‘tish tufayli har doimgidan 90-120 minut ko‘proq vaqt sarflamoqda. Lufthansa va Air France kabi avai kompaniyalar birgina 2024- yil davomida reyslarning bekor qilingani uchun yuzlab million yevro zarar ko‘rganlarini e’lon qildilar. Ko‘pab davlatlar ushbu notinch vaziyatda o‘z havo yo‘llarini yopib qo‘ydilar, atnovlar amalga oshirilmadi, bu esa, o‘z navbatida, tinvh aholi uchun ko‘plab noqulayliklar keltirib chiqardi. Oltin narxi ham keskin oshib ketdi, ko‘plab kichik iqtisodiyotlarning milliy valyutalari 5-10% ga qadrsizlanishi kuzatildi.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tarixdan va bugungi kundan ham ma’lum, urush, siyosiy notinchlik hech qachon bir davlat yoki millatga foyda olib kelmagan. Hamma birday aziyat chekadi. Ba’zi bir oqibati o‘ylamay qilingan qarorlarning aziyatini butun xalq, oddiy aholi chekadi. Butun boshli davlatlar bu kelishmovchilik, harbiy to‘qnashuvlardan keyin yillar davomida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy barqarorlikka erisha olmaydi, oqimga tushib keta olmaydi. Eron misoli ham shular jumlasidandir. Mamlakatda oxirgi o‘n yilliklarda davom etayotgan harbiy ziddiyat va iqtisodiy cheklovlar nafaqat uning ichki tinchligiga, dunyoda tutgan o‘rni mavqeyiga, balki butunjhon iqtisodiy muvozanatiga salbiy ta’sir qilmoqda. Bu ta’sirni kamaytirishning

yagona yo‘li sifatida diplomatik munosabat, aloqalarni yo‘lga qo‘yish va kuchaytirishni aytib o‘tishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Energy Agency. (2024). World energy outlook 2024: Analysis of geopolitical risks and global oil supply. <https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook-2024>

2. International Monetary Fund. (2024). Regional economic outlook: Middle East and Central Asia — Navigating geopolitical uncertainty. <https://www.imf.org/en/Publications/REO/MECA>

3. OPEC. (2023). Annual statistical bulletin 2023. <https://asb.opec.org/>

4. Suez Canal Authority. (2024). Navigation statistics: Annual report on transit revenues and vessel traffic. <https://www.suezcanal.gov.eg/>

5. United Nations Conference on Trade and Development. (2023). Review of maritime transport 2023: Navigating stormy waters. <https://unctad.org/rmt2023>

6. U.S. Energy Information Administration. (2024). Iran: Country analysis brief — Energy sector and sanctions impact. <https://www.eia.gov/international/analysis/country/IRN>

7. World Bank. (2024). Global economic prospects: The impact of Middle East conflict on commodity markets. <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>